

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliyana Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmurotov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbaeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026
Accepted: 17 January 2026
Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

ILLEGAL TRAFFICKING IN HUMAN ORGANS AND TISSUES: A CRIMINAL LAW AND COMPARATIVE LEGAL ANALYSIS

Jalilov Ravshanjon

Master's student

Academy of Law Enforcement

E-mail: j.ravshan82@gmail.com

Abstract. This article provides a criminal law and comparative legal analysis of crimes related to the sale and purchase of human organs and tissues, as well as their illegal export beyond the territory of the Republic of Uzbekistan, as предусмотрено in Articles 133¹ and 133² of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The object, subject matter, and the objective and subjective elements of these offences are examined. Based on a comparative analysis of the legislation of CIS member states and other foreign countries, proposals aimed at improving national criminal legislation are put forward.

Keywords: human organs; human tissues; illegal trafficking; sale and purchase; transplantation; criminal liability; comparative legal analysis.

INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL

Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹ va 133²-moddalarida nazarda tutilgan inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi hamda ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish bilan bog'liq jinoyatlar jinoiy-huquqiy va qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Mazkur jinoyat tarkiblarining obyekti, predmeti, obyektiv va subyektiv belgilari ochib berilgan. MDH va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil asosida milliy jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: inson a'zolari; inson to'qimalari; noqonuniy aylanma; oldi-sotdi; transplantatsiya; jinoiy javobgarlik; qiyosiy-huquqiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N51>

Kirish. Inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy aylanmasi zamonaviy jinoyatchilikning eng xavfli va latent ko'rinishlaridan biri bo'lib, u inson qadri, shaxsiy daxlsizlik va axloqiy qadriyatlarga bevosita tajovuz qiladi. Jahonda transplantatsiyaga bo'lgan ehtiyojning ortishi ushbu sohada tijoratlashtirish, transchegaraviy noqonuniy aylanma va uyushgan jinoyatchilik xavfini kuchaytirmoqda.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasida inson a'zolari va to'qimalari savdosi hamda ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish uchun alohida jinoiy javobgarlikning belgilanishi mazkur sohada jinoyat-huquqiy muhofazani kuchaytirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹ va 133²-moddalari jinoiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning mazmuni, qo'llanish xususiyatlari, shuningdek MDH va boshqa xorijiy davlatlar qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil asosida qonunchilikni takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-mayda qabul qilingan "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq, inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilish sohasida jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisini amalga oshirish, shuningdek transplantatsiya qilinadigan inson a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish qat'iyani taqiqlangan. Mazkur taqiqlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, 2022-yil 23-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga yangi 133¹-modda (Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi) hamda 133²-modda (Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish) kiritildi.

Tadqiqot usullari. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹ va 133²-moddalari dispozitsiya va sanksiyalarini o'rganishda formal-huquqiy tahlil, MDH va boshqa xorijiy davlatlar (Moldova, Armaniston, Gruziya, Germaniya, Ispaniya va boshqalar) qonunchiligini solishtirishda qiyosiy-huquqiy usul, milliy sud qarorlarini o'rganish asosida sud amaliyoti tahlili, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirish orqali doktrinal tahlil kabi ilmiy usullar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹ va 133²-moddalari "Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar" bo'limiga joylashtirilgan bo'lib, mazkur holat qonun chiqaruvchining ushbu jinoiy qilmishlarni **avvalo axloqiy-ijtimoiy qadriyatlarga qarshi jinoyatlar** sifatida baholaganini anglatadi. Ushbu jinoyatlarning asosiy obyekti sifatida jamiyatda inson a'zolari va to'qimalarining tovarga aylantirilishini inkor etuvchi axloqiy me'yorlarga rioya qilinishi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi.

Inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqish jamiyatda shakllangan **axloqiy, gumanistik va insonparvarlik tamoyillariga zid** hisoblanadi.

Shu bilan birga, mazkur jinoyatlarda **qo'shimcha obyektlar** ham mavjud. Jumladan, insonning sog'lig'i va fiziologik daxlsizligi, oilaviy qadriyatlar (ayniqsa, qarindoshlardan organ olish holatlarida), sog'liqni saqlash sohasidagi davlat boshqaruvi tartibi, jumladan, inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya qilishning qonuniy shartlari va tartibini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar.

V.V.Shavlovskayaning ta'kidlashicha, "Agar tajovuz tirik insonga qaratilgan bo'lsa, jinoyat obyekti sifatida, shubhasiz, insonning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar namoyon bo'ladi. Ikkinchi holatda tajovuz murdaga qaratilganida esa, jinoyat obyekti jamoat axloqini muhofaza qilish sohasida shakllanadigan ijtimoiy munosabatlarda ifodalanadi. Mazkur jinoiy tajovuzlarning predmeti sifatida insonning a'zolari, to'qimalari, hujayralari, shuningdek embrion hamda insonga tegishli biologik materiallar yoki suyuqliklar namoyon bo'lishi mumkin" [1; 5-b.].

Mazkur toifadagi jinoyat ishlari bo'yicha aybdor shaxslarning harakatlarini to'g'ri malakalashda **jinoyat predmetini** aniqlab olish katta ahamiyatga ega. O'rganilayotgan

moddaning dispozitsiyasiga ko'ra, jinoyat tajovuzi bevosita inson a'zolari va to'qimalariga qaratilgan.

"Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, **inson a'zosi** — inson organizmida muayyan vazifani bajaruvchi turli xil hujayralar va to'qimalarning alohida majmui, **inson to'qimasi** — umumiy kelib chiqishi, tuzilishi va inson organizmida bajaradigan vazifalariga ko'ra birlashgan hujayralar hamda hujayralararo moddalar majmui hisoblanadi.

Biroq mazkur holatda o'rinli savol tug'iladi: ushbu jinoyatning predmeti sifatida faqat vafot etgan shaxsning a'zolari va to'qimalari nazarda tutiladimi yoki tirik insonning kelgusida oldi-sotdi predmetiga aylanishi mumkin bo'lgan a'zolari va to'qimalari ham jinoyat predmeti sifatida baholanishi kerakmi?

Ta'kidlash joizki, amaldagi jinoyat qonunchiligida mazkur jinoyat predmetiga oid aniq va batafsil ta'rif mavjud emasligi huquqni qo'llovchi organlar tomonidan uni mustaqil talqin qilish holatlariga sabab bo'lmoqda. Xususan, Qashqadaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati apellyatsiya instansiyasining 1-1807-2501/93-sonli jinoyat ishi yuzasidan 17.11.2025-yilda chiqarilgan ajrimida [2] inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi deganda, tirik donordan yoki insonning murdasidan olingan a'zolar va (yoki) to'qimalar uchinchi shaxslarga pul yoxud boshqa moddiy boyliklar (mulk) ko'rinishida, mulkiy xizmatlar evaziga yoki qarzidan voz kechish evaziga berishga qaratilgan og'zaki yoki yozma bitim tushunilishi lozimligi qayd etilgan. Mazkur sud amaliyoti jinoyat predmeti doirasi nafaqat murdaga tegishli a'zolar, balki tirik insonga tegishli, kelgusida aylanmaga kiritilishi mumkin bo'lgan a'zolar va to'qimalarni ham qamrab olishi mumkinligini ko'rsatadi.

JK 133¹-moddasida nazarda tutilgan jinoyat (Inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi)ning **obyektiv tomoni** inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini qonunga xilof ravishda sotish, sotib olish yoki bunday bitimlarda vositachilik qilish kabi harakatlar orqali ifodalanadi.

Mazkur harakatlarning mazmunini ochib berishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida berilgan huquqiy tushunchalar [3; 1-b.] muhim metodologik ahamiyatga ega bo'lib, unga muvofiq, **oldi-sotdi** deganda muayyan obyekt (odam yoki boshqa qonun bilan muhofaza qilinadigan qadriyatni) pul, boshqa moddiy qimmatliklar, mulkiy xarakterdagi xizmatlar, qarzdan voz kechish yoki shu kabi manfaatlar evaziga berilishi haqida og'zaki yoki yozma bitim tuzilishi nazarda tutilgan.

Yuqorida keltirilgan sud ajrimi tahlili shuni ko'rsatadiki, amalda sud amaliyotida inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi tushunchasini talqin qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi qarorida bayon etilgan huquqiy yondashuvlar asos qilib olinmoqda.

Ayrim olimlar ushbu jinoyatning obyektiv tomoni inson a'zolari va to'qimalarini sotib olish, realizatsiya qilish, saqlash, transportirovka qilish yoki yetkazib berish kabi harakatlarda namoyon bo'ladi, deb hisoblashadi [4; 6-b.].

Bizning nazarimizda, inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi deganda, a'zoni yoki to'qimani muayyan haq evaziga topshirish, uni qabul qilib olish yoki ushbu jarayonni tashkil etish va vositachilik qilishni tushunish to'g'ri hisoblanadi. Bunda bitimning yozma yoki og'zaki shaklda tuzilgani, shuningdek haqning to'liq yoki qisman berilgani jinoyat tarkibining

mavjudligi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etmaydi. Muhim jihat shundaki, aybdor tomonlar o'rtasida moddiy manfaatga asoslangan kelishuv mavjud bo'lishi yetarli hisoblanadi.

Bu holatda jinoyat **formal tarkibga** ega bo'lib, ijtimoiy xavfli oqibatlar kelib chiqqan-chiqmaganidan, a'zo yoki to'qima amalda olingan-olinmagani, transplantatsiya amalga oshirilgan-oshirilmaganidan qat'i nazar, harakat sodir etilgan paytdan boshlab tugallangan deb hisoblanadi. Oldi-sotdiga qaratilgan kelishuvning o'zi jinoyat tarkibini yuzaga keltiradi.

Shu bilan birga, Internet tarmog'ida joylashtirilgan sud qarorlari elektron platformasidagi ma'lumotlarga ko'ra, sudlarda inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi bilan bog'liq jinoyat ishlari 2024-yilda 5 ta, 2025-yilda esa 2 ta holatda ko'rib chiqilgan. Mazkur ishlar bo'yicha barcha holatlarda tirik shaxsga tegishli, kelgusida noqonuniy aylanmaga kiritilishi mumkin bo'lgan buyrak a'zosi jinoyat predmeti sifatida o'tgan. Shu sababli, sudlar tomonidan aybdor shaxslarning harakatlari jinoyatning tamom bo'lgan tarkibi sifatida emas, balki suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilingan, chunki amalda inson a'zosini ajratib olish va uni uchinchi shaxsga topshirish bilan bog'liq harakatlar oxiriga yetkazilmagan. Ya'ni, aybdorlar o'z qasdlarini amalga oshirishga qaratilgan harakatlarni boshlagan bo'lsalar-da, jinoyatning obyektiv tomonini tashkil etuvchi asosiy harakat — inson a'zosini real ravishda olish va uni oldi-sotdi obyektiga aylantirish davlat organlari tomonidan barvaqt fosh etilishi yoki boshqa obyektiv sabablar tufayli amalga oshmagan. Sudlar ushbu holatlarda aybdor shaxslarning harakatlarini O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25-moddasi orqali JKning 133¹-moddasi bilan malakalashgan [5].

Shuningdek, Plenum qaroridagi yondashuv mazmunidan kelib chiqib, inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisida transplantatsiya qilish, ilmiy tadqiqotlarda foydalanish yoki yana qanday boshqa maqsadlar bo'lganligi jinoyatni kvalifikatsiya qilishga ta'sir etmaydi. Asosiy belgisi — inson a'zolari va to'qimalarini tovar sifatida muomalaga kiritish fakti hisoblanadi.

Plenum qarorida vositachilik harakatlari (topshirish, qabul qilish, tashkil etish) ga ham alohida to'xtalib o'tilganligidan kelib chiqib, inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisida donor bilan xaridorni bog'lash, pul ayirboshlashni tashkil etish, tibbiy muassasalar bilan noqonuniy kelishuvlar tuzish kabi harakatlar obyektiv tomonning tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

A.S.Yakimenkning fikricha, "Vositachilik harakatlarini amalga oshiruvchi shaxslar jinoyat sodir etish holatlariga qarab mazkur jinoyatda dalolatchi yoki yordamchi sifatida e'tirof etilishi mumkin. Vositachilik harakatlari bo'lajak bitim tomonlarini izlash, ularni o'zaro tanishtirish, shuningdek bo'lajak bitimni rasmiylashtirish va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning butun majmuasini o'z ichiga oladi hamda vositachining ushbu "xizmatlari" uchun haq olishi yoki olmasligidan qat'i nazar, uning harakatlari jinoiy-huquqiy baholanadi" [6; 19-b.].

Bundan tashqari, shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 24-noyabrdagi "Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarori 3-bandi mazmuniga tayanilgan [7; 1-b.] holda, agar shaxs inson a'zolari va to'qimalarini muayyan haq evaziga topshirishga va'da berib, biroq azaldan uning qasdi bitim shartlarini bajarishga emas, balki moddiy qimmatliklarni egallashga qaratilgan bo'lsa, bunday harakatlar firibgarlik jinoyati tarkibini tashkil etishligi, bunda esa, haq to'lash orqali inson a'zolari va to'qimalarini qo'lga kiritishga urinayotgan oluvchining harakatlari inson a'zolari va

to'qimalarining oldi-sotdisi jinoyatiga suiqasd sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi to'g'ri hisoblanadi.

Sud amaliyotida aybdor shaxslar tomonidan inson a'zosini sotish niyati bo'lmagani, balki jabrlanuvchini aldash yo'li bilan pul mablag'larini qo'lga kiritish maqsad qilingani haqida vajlar tez-tez ilgari suriladi. Bunday holatlar yuqoridagi huquqiy pozitsiyaning amaliy ahamiyatini oshiradi hamda jinoyat tarkiblarini to'g'ri chegaralash zarurligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, inson a'zolari va to'qimalari bilan bog'liq muomala faqat mamlakat ichki hududi doirasi bilan cheklanib qolmasdan, ularni mamlakat hududidan tashqariga olib chiqish orqali transchegaraviy xususiyat kasb etishi ham mumkin. Ana shu holatlarni jinoyat-huquqiy jihatdan qamrab olish, jinoyatning xalqaro xususiyat kasb etish xavfini kamaytirish hamda transplantatsion turizmning oldini olish maqsadida qonun chiqaruvchi Jinoyat kodeksining 133²-moddasida alohida jinoyat tarkibini belgilagan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133²-moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining **obyektiv tomonini** talqin qilishda mazkur norma insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolari va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqishning o'zi qonunga xilof ekanini nazarda tutadi, xususan, qonun chiqaruvchi mazkur modda dispozitsiyasida bojxona tartibini buzish, kontrabanda yoki chegaradan noqonuniy o'tish kabi belgilarni maxsus ko'rsatmagani, jinoiy javobgarlikni harakatning shakliga emas, balki inson a'zolari va to'qimalarining qonunga muvofiq mulkiy muomala predmeti hisoblanmasligiga bog'laganidan dalolat beradi.

Biroq bizning fikrimizcha, bunday yondashuvni to'liq maqbul deb aytib bo'lmaydi. Chunki mazkur modda dispozitsiyasida insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolari va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqish qonunchilik bilan taqiqlanganligi sababli uning qonunga xilof ekanligi alohida ifodalanishi lozim. Shuningdek, amalda qonunchilikda mavjud bo'lgan bo'shliqni bartaraf etish maqsadida inson a'zolari va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga noqonuniy olib kirish uchun ham jinoiy javobgarlikni nazarda tutish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu borada xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida (jumladan, Moldova, Gruziya va Qirg'izistonda) inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy eksporti bilan bir qatorda importi uchun ham teng darajada jinoiy javobgarlik belgilangani transchegaraviy noqonuniy aylanmaning barcha shakllarini qamrab olishga xizmat qiladi.

JKning 133¹ va 133²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarning **subyekti** umumiy subyekt hisoblanadi, ya'ni jinoyatni 16 yoshga yetgan, aqli raso jismoniy shaxslar sodir etishi mumkin, ayrim hollarda maxsus subyekt (tibbiyot xodimlari, mansabdor shaxslar) ham bo'lishi mumkin.

Amaliyot va kriminologik tahlil ushbu jinoyatlarning muayyan tipik subyektlar guruhi mavjudligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, subyektlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1) Bevosita ijrochi subyektlar — inson a'zolari va to'qimalarini oldi-sotdisida bevosita ishtirok etuvchi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga chiqaruvchi shaxslar (donor, retsiyent, tashuvchi, topshiruvchi).

2) Vositachi subyektlar — donor, xaridor va tibbiy muassasalar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi, kelishuvni tashkil etuvchi yoki moliyaviy operatsiyalarni muvofiqlashtiruvchi shaxslar (brokerlar, yordamchilar).

3) Tibbiyot sohasidagi maxsus subyektlar — tibbiyot xodimlari, laboratoriya mutaxassislari, klinika xodimlari bo'lib, ular o'z kasbiy bilim va imkoniyatlaridan qonunga xilof ravishda foydalangan holda jinoyatga ko'maklashishi mumkin.

4) Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma a'zolari — ushbu qilmishlarni tizimli, rejali va daromad olish maqsadida sodir etuvchi shaxslar guruhi.

Ushbu jinoyatlar **to'g'ridan-to'g'ri qasd** bilan sodir etiladi. Aybdor shaxs o'z harakatlarining qonunga xilof ekanini va ijtimoiy xavfli ekanligini anglaydi, ijtimoiy xavfli oqibatlarining kelib chiqish ehtimoli yoki muqarrarligini oldindan biladi hamda ularning yuz berishini istaydi yoki ularga ongli ravishda yo'l qo'yadi.

JK 133¹ va 133²-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarda aksariyat holatlarda **moddiy manfaatdorlik** jinoyatning rag'batlantiruvchi motivi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa uning ijtimoiy xavfilik darajasini oshiradi. Inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi yoki ularni mamlakat hududidan tashqariga chiqarish ko'p hollarda pul mablag'lari, boshqa mulkiy qimmatliklar yoki iqtisodiy foyda olishga qaratilgan bo'lib, inson tanasini tovar sifatida muomalaga kiritishga urinish bilan ifodalanadi. Ushbu jinoiy qilmishlar **xizmat yoki kasbiy manfaat** motivi bilan ham sodir etilishi mumkin. Xususan, tibbiy xodimlar yoki sohaga aloqador shaxslar o'z kasbiy bilimlari va imkoniyatlaridan foydalangan holda noqonuniy transplantatsiya zanjirida ishtirok etishi mumkin.

Mazkur yo'nalishda MDH va boshqa xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligi bilan qiyosiy tahlil qilish bir qator umumiy va farqli jihatlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbekiston singari MDH mamlakatlari bir qismining jinoyat qonunchiligida inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi uchun alohida jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lsa (masalan, Gruziya, Moldovada), ayrimlarida ushbu jinoyat inson a'zolarining va (yoki) to'qimalarini olish va transplantatsiya qilish tartibini buzish, inson roziligini olishga majburlash bilan bog'liq boshqa jinoyat tarkiblari ichida keltirilgan (masalan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Armaniston, Ukraina), MDHning qolgan mamlakatlarida (Rossiya, Tojikiston, Belarus va h.q.) esa ushbu turdagi jinoyat uchun umuman jinoiy javobgarlik belgilanmagan.

Shu bilan birga, Moldova va Armaniston jinoyat kodekslarida inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy muomalasi "oldi-sotdi" tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, unga keng qamrovli mazmunda ta'rif berilgan. Xususan, Moldova Respublikasining Jinoyat kodeksida inson a'zolari va to'qimalarini sotish va sotib olishdan tashqari, ularni talon-toroj qilish, noqonuniy foydalanish, saqlash, egalik qilish, o'tkazish, olish, import va eksport qilish hamda transportirovka qilish kabi harakatlar ham "oldi-sotdi" mazmuniga kiritilgan. Armaniston jinoyat qonunchiligida esa inson a'zolari va to'qimalarini egallash, realizatsiya qilish, saqlash va transportirovka qilish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladigan harakatlar sifatida belgilangan bo'lib, oldi-sotdi predmeti doirasi faqat organ va to'qimalar bilan cheklanmasdan, biologik materiallar, biologik suyuqliklar hamda inson organizmining boshqa fragmentlarini ham qamrab olgan.

Qirg'iziston qonunchiligida esa inson a'zolari va to'qimalarining savdosi va ularni chet elga olib chiqish jinoyatning **og'irlashtiruvchi belgisi** sifatida baholanadi, ammo alohida modda darajasida belgilanmagan.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining o'ziga xos xususiyati inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisini (133¹-modda) hamda ularni

mamlakat hududidan tashqariga noqonuniy olib chiqishni (133²-modda) ikki mustaqil jinoyat tarkibi sifatida alohida normalarda mustahkamlaganida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda jinoiy-huquqiy muhofazaning profilaktik va preventiv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yana shuni qayd qilish kerakki, MDH mamlakatlari ichida faqat Moldovada inson a'zolari, to'qimalari va (yoki) hujayralarini noqonuniy olish maqsadida reklama qilish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali inson a'zolari, to'qimalari va (yoki) hujayralarining noqonuniy donorligiga oid e'lonlar berish yoki tarqatish uchun jinoiy javobgarlik (JK 213¹-moddasi) belgilangan.

Sud amaliyotini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasida ham inson a'zolari, to'qimalari va (yoki) hujayralarini noqonuniy olish maqsadida reklama qilish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali ularning noqonuniy donorligiga oid e'lonlar berish yoki tarqatish holatlari mavjud. Ayniqsa, bu kabi qonunga xilof faoliyatning "Telegram" ijtimoiy tarmog'i orqali fuqarolar orasida keng avj olgani tashvish uyg'otadi. Xususan, "Buyrak pochka", "Zagran bor +1", "Buyrak.uz", "Buyrak sotish pochka sotish", "Buyrak jigar sotish sotib olish", "Pochka buyrak transplantologiya", "Buyrak sotish va sotib olish" kabi guruhlarining mavjudligi qayd etilib, jinoiy guruh unsurlari aynan shunday elektron platformalar orqali mijozlar topib, inson a'zolari savdosi bilan shug'ullanish holatlari aniqlangan.

Bundan tashqari, inson tanasidan tijorat maqsadlarida foydalanishning oldini olish maqsadida xalqaro huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Masalan, 2002-yil 24-yanvar kuni Strasburg shahrida Inson huquqlari va biomeditsina to'g'risidagi Konvensiyaga inson a'zolari va to'qimalarini transplantatsiya qilishga oid 186-sonli Qo'shimcha protokol qabul qilingan. Ushbu protokolning 6-bobi 21-moddasida moliyaviy foyda olish taqiqlanishi belgilangan. Xususan, unda "inson tanasi va uning qismlari moliyaviy foyda yoki unga tenglashtirilgan boshqa manfaatlarni olish maqsadida qo'llanilishi mumkin emas. Moliyaviy foyda yoki unga tenglashtirilgan manfaatlarni taklif qilish yoki olish maqsadida a'zolar yoki to'qimalarga ehtiyoj mavjudligi yoxud ularning mavjudligi haqida e'lonlar berish taqiqlanadi", deb belgilangan [8; 137-b.].

Protokolning 22-moddasiga muvofiq esa "inson a'zolari va to'qimalari bilan savdo qilish taqiqlanadi" [9].

Inson a'zolari savdosi korrupsiyani qo'llab-quvvatlovchi va katta moliyaviy daromad keltiradigan omillardan biri hisoblanadi, shu bilan birga u yuqori darajada latent xarakterga ega. Bunday jinoiy faoliyat, qoida tariqasida, yakka tartibda emas, balki uyushgan jinoiy guruhlar tarkibida amalga oshiriladi [10; 108-b.].

Inson a'zolarini transplantatsiya qilishni tartibga soluvchi yana asosiy xalqaro hujjatlardan biri — "Inson a'zolari savdosi va transplantatsion turizm to'g'risidagi Istanbul deklaratsiyasi" (Istanbul Declaration on Organ Trafficking and Transplant Tourism) hisoblanadi. Ushbu deklaratsiya 2008-yilda qabul qilingan bo'lib, organlar savdosining barcha shakllarini qoralaydi hamda davlatlarni ushbu noqonuniy harakatlarning oldini olishga qaratilgan samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqishga da'vat etadi.

Shuningdek, inson a'zolari savdosining global tahdidiga qarshi samarali kurashish hamda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida 2015-yilda Yevropa Kengashi doirasida birinchi xalqaro shartnoma — Inson a'zolari savdosiga qarshi Yevropa Kengashi Konvensiyasi

(Santiago-de-Kompostela, 25.03.2015) qabul qilindi. Ushbu Konvensiyada ilk bor inson a'zolarini har qanday shaklda tijoratlashtirish qat'iy taqiqlangan bo'lib, ularni oldi-sotdisi, moliyaviy foyda olish, shu jumladan donor yoki uchinchi shaxslar manfaati uchun haq olish mumkin emasligi mustahkamlangan.

Santiago-de-Kompostela Konvensiyasi milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy javobgarlik belgilash masalasini ko'rib chiqishni taklif etib, inson a'zolarining noqonuniy aylanmasining barcha asosiy shakllarini qamrab oladi. Xususan, noqonuniy olingan a'zolaridan transplantatsiya maqsadida foydalanish, milliy transplantatsiya tizimidan tashqari yoki asosiy qoidalarini buzgan holda implantatsiya qilish, noqonuniy xizmatlarni majburlab taklif etish yoki verbovka qilish, shuningdek inson a'zolarini dastlabki tayyorlash, konservatsiyalash, saqlash, transportirovka qilish, o'tkazish, olish, import va eksport qilish kabi harakatlar jinoiy javobgarlik doirasiga kiritilgan (Konvensiyaning 4-modda 1-qismi, 5, 7, 8 va 9-moddalari) [11].

Shundan kelib chiqib, "inson a'zolari savdosi" tushunchasi mazmunan inson a'zolarining noqonuniy aylanmasi tushunchasiga teng ekani xulosa qilinadi. Bunday aylanmani huquqiy kvalifikatsiya qilishda inson a'zolarining huquqiy maqomi, ularning muomalasiga oid huquqiy jihatlar hamda belgilangan tartib-qoidalarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi [12; 100-101-b.].

Deyarli barcha xorijiy mamlakatlarda (Erondan tashqari [13; 275-b.]) inson a'zolaridan noqonuniy va tijorat maqsadlarida foydalanish uchun javobgarlik belgilangan.

Masalan, **Ispaniya** Jinoyat kodeksining 156-moddasiga muvofiq, inson a'zolari savdosi deganda, inson a'zolarini noqonuniy olish; noqonuniy olingan inson a'zolarini saqlash, transportirovka qilish, eksport va import qilish; shuningdek noqonuniy olingan inson a'zolaridan foydalanish kabi harakatlar tushuniladi. Shu bilan birga, Ispaniya qonunchiligida hanuzgacha transplantatsiya obyekti hisoblangan inson a'zolarining to'liq ro'yxati mustahkamlanmaganligi, Jinoyat kodeksida inson a'zolaridan tashqari inson to'qimalari hamda organizmning turli fiziologik suyuqliklari savdosi uchun jinoiy javobgarlik belgilanmaganligi kabi bo'shliqlar aniqlangan [14; 216-b.].

Shuningdek, Germaniya Federativ Respublikasi Jinoyat kodeksida inson a'zolari savdosi uchun jinoiy javobgarlik 1997-yil 5-noyabrda qabul qilingan "Inson a'zolari va to'qimalarini donorlik, olish va transplantatsiya qilish to'g'risida"gi Qonunga asoslangan holda belgilangan, Xitoy Xalq Respublikasining 1979-yilgi (1997-yildagi tahririda) Jinoyat kodeksi 234-moddasida inson a'zolarini sotishni tashkil etish uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan.

Yoki Shveysariyada 2004-yilgi "Inson a'zolari, to'qimalari va hujayralarini transplantatsiya qilish to'g'risida"gi Federal qonun qabul qilinib, unda inson a'zolari, to'qimalari va hujayralari savdosiga taqiq belgilangan bo'lsada, ushbu taqiqni ta'minlash uchun yetarli darajada jinoyat-huquqiy asoslar nazarda tutilmagan [15; 194-196-b.].

Bundan tashqari, qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹-moddasi ikkinchi qismida inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasini oshiradigan ayrim og'irlashtiruvchi holatlar belgilangan bo'lib, mazkur qilmish takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, shuningdek bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan taqdirda, aybdor shaxslarning harakatlari jinoyatning og'irlashtirilgan tarkibi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston, Qirg'iziston, Moldova va boshqa ayrim mamlakatlar jinoyat

kodekslarida inson a'zolari va to'qimalari oldi-sotdisi bilan bog'liq jinoyatlarda og'irlashtiruvchi holatlar ancha keng va detallashtirilgan tarzda nazarda tutilgan. Xususan, mazkur jinoyatning voyaga yetmagan shaxsga nisbatan, homiladorligi aybdorga oldindan ma'lum bo'lgan shaxsga nisbatan, mansab mavqeyini suiiste'mol qilish yo'li bilan yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi alohida og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilab qo'yilgan bo'lib, bu yondashuv jinoyatning yuqori ijtimoiy xavfliligini to'laroq aks ettirishga qaratilgan.

A.Binakulovning fikricha, inson a'zolari va to'qimalarining oldi-sotdisi jinoyatining og'irlashtiruvchi holatlari sifatida jinoyatning g'arazgo'ylik yoki boshqa past niyatlarda, xizmat mavqeyidan foydalangan holda, takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan sodir etilishini, shuningdek, o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan, o'ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilganini kiritishni taklif qilgan [16; 110-b.].

Shu tariqa, MDH davlatlari jinoyat qonunchiligining qiyosiy tahlili inson a'zolari va (yoki) to'qimalarining oldi-sotdisi bilan bog'liq jinoyatlarda og'irlashtiruvchi holatlarni keng va tizimli tarzda belgilash jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqroq differentsiatsiya qilish, aybdor shaxsning qilmishiga adolatli huquqiy baho berish shaxsni kuchliroq muhofaza qilish imkonini yaratishini ko'rsatadi. Mazkur ilg'or tajribani O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligiga joriy etish inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga hamda ushbu jinoyat tarkibini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Muhokama. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy muomalasi jinoyat tarkibi keng va kompleks tarzda shakllantirilgan bo'lib, unda faqat oldi-sotdi emas, balki saqlash, tashish, import va eksport, shuningdek vositachilik va noqonuniy donorlikka oid reklama qilish kabi harakatlar ham mustaqil jinoiy ahamiyatga ega deb e'tirof etilgan. Milliy qonunchilikda esa ushbu jinoyatlarning og'irlashtiruvchi holatlari va zamonaviy shakllari cheklangan tarzda ifodalangani sababli, voyaga yetmaganlar yoki ojiz ahvoldagi shaxslar manfaatlarini himoya qilish, xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, uyushgan guruh faoliyati, shuningdek transplantatsion turizm, internet orqali reklama va vositachilik kabi ijtimoiy xavfli ko'rinishlarni to'liq qamrab olish imkoniyati yetarli emas, bu esa milliy jinoyat qonunchiligini qiyosiy tajriba asosida yanada takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, bizning fikrimizga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 133¹ va 133²-moddalarini yangi tahrirda quyidagicha bayon etish hamda Jinoyat kodeksiga yangi tahrirdagi 133³-moddasini qo'shimcha kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

«133¹-modda. Inson a'zolarini, to'qimalarini, hujayralarini va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarining oldi-sotdisi

Inson a'zolari, to'qimalari, hujayralari va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarini qonunga xilof ravishda pul yoki boshqacha moddiy manfaat evaziga sotib olish, sotish (realizatsiya qilish) yoki bunda vositachilik qilish, shuningdek, ularni qabul qilish, topshirish, ularni tashish, olib yurish, jo'natish, saqlash, yashirish yohud ularning oldi-sotdisi xususidagi kelishuvga erishish bilan bog'liq har qanday faoliyat, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o'jiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;

b) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;

v) o'n sakkiz yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo'lsa;

g) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

d) xizmat mavqeyidan foydalangan holda;

ye) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan yoxud ilgari ushbu Kodeksning 115¹, 133, 133², 135, 137-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs tomonidan; besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o'ta xavfli retsivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, — sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi»;

«133²-modda. Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish yoki O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish

Insonning transplantatsiya qilinadigan a'zolarini va (yoki) to'qimalarini qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, —

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud bir yildan uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum etib, uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi»;

«133³-modda. Inson a'zolari, to'qimalari, hujayralari va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarining oldi-sotdisi, ularning noqonuniy donorligi haqida reklama qilish

Inson a'zolari, to'qimalari, hujayralari va (yoki) inson organizmining boshqa qismlarini oldi-sotdisi yoki ularning noqonuniy donorligi haqida reklama qilish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida va (yoki) Internet jahon axborot tarmog'ida reklama qilish, shuningdek e'lonlar (takliflar) berish yoki xuddi shunday mazmunda ma'lumot tarqatish, namoyish etish shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, —

bazaviy hisoblash miqdorining bir yuz ellik baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha ozodlikni cheklash yoki bir yildan ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi».

Xulosa. O'tkazilgan tahlil inson a'zolari va to'qimalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishda O'zbekiston jinoyat qonunchiligida muhim qadamlar qo'yilganini ko'rsatadi. Biroq qiyosiy-huquqiy tahlil jinoyat tarkiblarini yanada detallashtirish, og'irlashtiruvchi holatlar doirasini kengaytirish, inson a'zolari va to'qimalarini noqonuniy olib kirish hamda reklama qilish uchun jinoiy javobgarlik belgilash zarurligini asoslaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish inson tanasini tovarga aylantirishga qarshi samarali jinoyat-huquqiy mexanizm yaratishga, transchegaraviy jinoyatlarning oldini olishga va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. В.В.Шавловская Уголовно-правовая модель криминализации незаконных действий в отношении органов и (или) тканей // Юридические исследования. 2024. № 5. DOI: 10.25136/2409-7136.2024.5.70769 EDN: ULBRYN URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=70769
2. Интернет тармоғида эълон қилинган суд қарорлари URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2009 йил 24 ноябрдаги “Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 12-сонли қарори. URL: <https://lex.uz/uz/docs/1616053>
4. В.В.Шавловская Уголовно-правовая модель криминализации незаконных действий в отношении органов и (или) тканей // Юридические исследования. 2024. № 5. DOI: 10.25136/2409-7136.2024.5.70769 EDN: ULBRYN URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=70769
5. Интернет тармоғида эълон қилинган суд қарорлари URL: <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
6. А.С.Якименко Уголовная ответственность за преступления, связанные с незаконным изъятием органов и (или) тканей человека// Автореферат 2007. URL: <https://www.dissercat.com/content/ugolovnaya-otvetstvennost-za-prestupleniya-svyazannye-s-nezakonnym-izyatiem-organov-i-ili-tk>
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2009 йил 24 ноябрдаги “Одам савдосига оид ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 12-сонли қарори. URL: <https://lex.uz/uz/docs/1616053>
8. Т.А.Фабрика Ответственность за незаконную трансплантацию человеческих органов и (или) тканей в зарубежном и российском законодательствах // Вестник ЧелГУ. 2005. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otvetstvennost-za-nezakonnuyu-transplantatsiyu-chelovecheskih-organov-i-ili-tkaney-v-zarubezhnom-i-rossiyskom-zakonodatelstvah>.
9. 186-й Дополнительный протокол к Конвенции по правам человека и биомедицине относительно трансплантации органов и тканей человека, Страсбург, 24 янв. 2002 г. URL: http://www.librarium.ru/article_1341.htm.
10. В.В.Нимировский, Ю.К.Нимировская Торговля человеческими органами как фактор, детерминирующий торговлю людьми // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2022. №8. (2). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/torgovlya-chelovecheskimi-organami-kak-faktor-determiniruyuschiy-torgovlyu-lyudmi>.
11. Council of Europe Convention against Trafficking in Human Organs (CETS No. 216). Retrieved from: URL: <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=treaty-detail&treaty-num=216> (accessed 1 September 2022).
12. М.Авотиня, Криминализация незаконного оборота человеческих клеток, тканей и органов в РФ и в зарубежных странах // Медицинское право: теория и практика. М.: Национальный институт медицинского права, 2022. Том 8. №3-4 (17-18). URL: https://elibrary.ru/title_about.asp?id=58307
13. Чукреев В. А. Противодействие незаконной трансплантации органов и тканей в зарубежном законодательстве // Вестник Московского университета МВД России. 2022. № 4. URL: <https://doi.org/10.24412/2073-0454-2022-4-275-279>.
14. В.А.Шестак, Н.В.Шестак Вопросы уголовной ответственности за незаконную трансплантацию органов и тканей на примере современного законодательства Королевства Испании. Вестник экономической безопасности. 2019;(3):213-8. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voprosy-ugolovnoy-otvetstvennosti-za>

[nezakonnyu-transplantatsiyu-organov-i-tkaney-na-primere-sovremennogo-zakonodatelstva](#)

15. В.В.Шавловская Ответственность за торговлю органами, тканями и клетками: зарубежный взгляд // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. 2022. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/otvetstvennost-za-torgovlyu-organami-tkanyami-i-kletkami-zarubezhnyy-vzglyad>.
16. А.Бинакулов Уголовно-правовые аспекты трансплантации органов и тканей (клеток) человека // Обозрение юридических наук. 2020. № Спецвыпуск. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovno-pravovye-aspekty-transplantatsii-organov-i-tkaney-kletok-cheloveka>.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).